

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**QOSIMOVA OGULXON XAKIMDJONOVNA**

**ATSETILEN ASOSIDA FENOL VA UNING HOSILALARINI  
KATALITIK VINILLASH TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD ) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Qosimova Ogulxon Hakimdjonovna**

Atsetilen asosida fenol va uning hosilalarini katalitik  
vinillash texnologiyasi..... 5

**Косимова Огулхон Хакимджоновна**

Технология каталитического винилирование фенола  
и его производных на основе ацетилена ..... 21

**Kosimova Ogulkhon**

**Technology of catalytic vinylation of phenol and its derivatives  
based on acetylene..... 47**

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 51

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**QOSIMOVA OGULXON XAKIMDJONOVNA**

**ATSETILEN ASOSIDA FENOL VA UNING HOSILALARINI  
KATALITIK VINILLASH TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFIRATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attetsatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5189 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va "Ziyonet" Axbarot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna</b> kimyo fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Yusupova Lola Azimovna</b> texnika fanlari doktori, professor <b>Oxundadayev Abdug'ani Komiljon o'g'li</b> texnika fanlari falsafa doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent davlat texnika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «6» mart soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 364 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri,

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «19» fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil «19» fevraldagi № 1-raqamli reestr bayonnomasi)

**Ergashev O.K.,**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy kengash raisi,  
k.f.d., prof.

**Sherqo'ziyev D.Sh.**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d., prof.

**Kadirxanov J.M.**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dots.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda atsetilen birikmalar kimyosi rivojlanishida fenol va uning hosilalari hamda ularning vinil efirlari sintezida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, vinil efirlari hosil bo'lish mexanizmini va qo'llanish sohalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Fenol va uning hosilalari hamda ularning vinil efirlari qishloq xo'jaligida biologik faol modda sifatida, kimyo sanoatida organik sintezda boshlang'ich moddalar, polimerlar kimyosida monomerlar, qoplovchi materiallar, ayrim metall ionlarini aniqlashda analitik reagent sifatida va yelimlar olishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari bunday birikmalardan issiqlikka chidamli mahsus materiallar, destruksiyaga chidamli termik oksidlovchilar, agressiv eritmalarga ta'sirchan, elektrolyumenisenziyaga bardoshli materiallar, modifikatorlar va gidrofob materiallar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda vinil efirlarning tuzilishi va reaksiya qobiliyatini o'rganish, oraliq metallar bilan kompleks birikmalar hosil qilish jarayonlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada alkinlarning elektron tuzilishi va fizik xossalari asosida ularni elektrofil va nukleofil hamda metall komplekslari bilan ta'sir jarayonlarini aniqlash, atsetilen asosida yangi organik birikmalarni sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalari aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda kimyoviy moddalarni, jumladan organik moddalarni ishlab chiqarishda mahalliy xomashyolardan foydalanish orqali mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish, import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan birikmalarni olish usullarini yaratish, ularni hosil bo'lishini va qo'llanilish sohalarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish" vazifalari belgilab berilgan<sup>1</sup>. Bu borada mahalliy xomashyolar asosida atsetilen aminoefirlari va ularning hosilalarini iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmonlari, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-son «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari» va 2018 yil 17 yanvardagi PQ-3479-son «Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 2022-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Dunyoda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida atsetilen bilan fenol va uning gomologlarini reaksiyalari yuqori bosimda olib borilgan. Mahsulot unumiga erituvchi, katalizator tabiati, harorat ta'sirlarini o'rganish, atsetilen kimyosi, texnologiyasi va ularni qo'llanilish sohaslarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xorijda, ushbu yo'nalishda B.A.Trofimov va O.N.Temkinning ilmiy ishlarida atsetilen spirtlari vinil efirlari yuqori asosli sistemalar asosida sintez qilingan. M.Wiggers atsetilen birikmalari asosida smola, rezina, yelim va plastmassalarni erituvchi preparatlar ishlab chiqarish, A.Viola vinil efirlari asosida polimer moddalar olish texnologiyasini yaratish, J.M.Petersen atsetilen spirtlarining murakkab vinil hosilalarini ishlab chiqish, J.Okawa atsetilen spirtlarini nanokatalizatorlar ishtirokida sintez qilish, M.A.Hassan furanni xlorli hosilalaridan tetragidrofuran eritmasida, litiy butillat katalizatorlari ishtirokida atsetilen spirtlarini yuqori unumda olish texnologiyasini yaratish, E.J.Corey atsetilen va uning gomologlari asosida olinadigan monomerlarni rezina sanoatida qo'llash, R.V.Wannort atsetilen spirtlarining tibbiyotda, Yumeng Xi neft-gaz sanoatida qo'llash, B.A.Kulkarni esa atsetilen spirtlarini zamburug'larga qarshi biologik faolligini o'rganish orqali ushbu yo'nalishning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar.

Respublikamizda atsetilen va uning asosida olinadigan kimyoviy birikmalar va ularning vinil birikmalari sintezi yo'nalishida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.G.Maxsumov rahbarligida propargil spirti asosida murakkab geterosiklik birikmalar sintezi, T.S.Sirliboev atsetilen asosida boradigan kimyoviy jarayonlarning fundamental nazariy qonuniyatlari, A.Ikromov atsetilen uglevodorodlari kimyosida turli xil geterogen-katalitik sistemalar qo'llash orqali olinadigan mahsulotlar unumini oshirish va yangi katalizatorlarni sanoatda qo'llash prinsiplari, D.Yusupov va S.E.Nurmanovlar tomonidan esa atsetilen asosida azot tutgan geterosikllar olish ustida ilmiy ishlar olib borilgan.

Fenol hosilalari vinil efirlari sintezida jarayonda yuqori asosli sistemalarni rolini ko'rsatish, birikmalarni kvant-kimyoviy xossalarni o'rganish, natijalarni matematik modellashirish, olingan birikmalarni biologik faolligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish talab etiladi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №OT-F-7-52 «Turli tabiatli organik va noorganik moddalarning ta'sirlashish qonuniyatlari, reaksiyon qobiliyati hamda berilgan kompleks xossali yangi birikmalar olish» loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** atsetilen asosida fenol va uning hosilalarini katalitik vinillash jarayonlari texnologiyasini ishlab chiqish va olingan moddalarni qo'llanish sohaslarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

fenol va uning hosilalarini atsetilen bilan gomogen va geterogen usulda katalitik vinillash orqali vinil efirlar sintezi jarayonlarini amalga oshirish;

maxsulot unumiga turli omillar: erituvchi, reaksiya harorati va davomiyligi, katalizator tabiati va miqdori, boshlang'ich moddalar mol nisbatlari ta'sirini aniqlash, reaksiya borishining maqbul sharoitlarini topish;

fenol va uning hosilalarini elektron tuzilishini, molekulyar-dinamik xususiyatlarini kvant-kimyoviy usullar orqali o'rganish, sintez qilingan birikmalarni hosil bo'lish mexanizmini taklif qilish;

fenol va uning hosilalari sintezi tajriba natijalarini matematik qayta ishlash va jarayonlar borishini matematik modellashtirishni amalga oshirish, har bir holat uchun jarayonning matematik ifodasini tavsiya etish;

sintez qilingan vinil efirlarni qo'llanilish sohasini aniqlash, fenol va uning hosilalarini atsetilen ishtirokida katalitik vinillash jarayonini texnologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida fenol va uning hosilalari: *o*-, *m*-, *p*-krezollar, *p*-bromfenol, 2,4-dibromfenol, nitrofenol, aminofenol, gidroksinon va ularning oddiy efirlari, atsetilen NaOH, KOH, erituvchilar: benzol, toluol, dioksan, dimetilformamid (DMFA), dimetilsulfoksid (DMSO), KOH-DMCO yuqori asosli sistemalar tanlab olingan

**Tadqiqot predmetini** fenol hosilalarini vinillash jarayoni, ularning vinil efirlari, shuningdek ishqorlar asosidagi katalizatorlar va organik aproton dipolyar erituvchilar yordamida sintez usullari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida organik sintez usullari, gomogen-katalitik sintez, ishqoriy vinillash, PMR- va IQ-spektroskopiya, gaz suyuqlik xromatografiyasi (GSX), STAT dasturi, kvant-kimyoviy RMZ yarim empirik kimyoviy hisoblash usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fenol va uning hosilalarini atsetilen bilan gomogen usulda DMCO-KOH katalitik sistemasida vinillash reaksiyasi orqali vinil efirlari sintez qilish mumkinligi isbotlangan;

yuqori asosli sistemalar ishtirokida fenol va uning hosilalari vinil efirlari sintezi jarayoniga reaksiya harorati, katalizator tabiati va miqdori, reaksiya davomiyligi ta'siri aniqlangan va jarayon borishining maqbul sharoiti topilgan;

boshlang'ich moddalar molekularining elektron tuzilishi, molekulyar-dinamik xususiyatlari kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan va reaksiyalar borishining mexanizmi asoslangan;

fenol, *o*-, *m*-, *p*-krezollar, *p*-bromfenol, 2,4-dibromfenol, nitrofenol, gidroksinon, *o*-aminofenolni atmosfera bosimida atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi natijasida mos ravishda vinil efirlar hosil bo'lishi aniqlangan;

sintez qilingan fenol va *m*-krezolning vinil efiri metallar biokorroziyasi ingibitori sifatida va g'o'za o'simligi defolianti sifatida hamda ayrim metall ionlarini aniqlashda analitik reagent sifatida qo'llash imkoniyati aniqlangan;

fenol va uning hosilalarini atsetilen ishtirokida katalitik vinillash jarayoni matematik modellashtirilgan va texnologiyasi ishlab chiqilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

fenol va uning hosilalarini gomogen - geterogen sharoitlarda atsetilen bilan vinillash usuli ishlab chiqilgan va mos ravishdagi vinil efirlar sintez qilingan;

fenol va uning hosilalari vinil efirlari unumiga turli omillar: sintez usuli, boshlang'ich moddalar tabiati va mol nisbati, reaksiya harorati va davomiyligi, katalizator tabiati va miqdori ta'siri aniqlangan, jarayonlar borishining maqbul sharoiti topilgan;

gomogen usulda fenol va uning hosilalari vinil efirlari olish jarayoni matematik modellashtirilgan, olingan tajriba natijalari matematik qayta ishlangan;

fenol va uning hosilalari vinil efirlarini geterogen usulda sintez qilish jarayoni texnologik parametrlari aniqlangan va texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sintez qilingan *m*-krezolning vinil efiri defoliant va neft omborlari metall konstruksiyalarini biokorroziyadan himoyalovchi bioingibitor sifatida, p-bromfenolning vinil efiri esa simob ionini eritmalarda aniqlashda samarali analitik reagent sifatida sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida sintez qilingan birikmalarning tuzilishini aniqlashda zamonaviy analiz usullari: IQ-, <sup>1</sup>H-YaMR-spektroskopiyadan foydalanilganligi, tajriba natijalari matematik qayta ishlanganligi, kvant-kimyoviy hisoblashlar qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fenol va uning hosilalarini vinil efirlari geterogen-katalitik usulda sintez qilinganligi, jarayonda yuqori asosli sistemalarning roli ko'rsatilgan, maxsulot unumiga turli omillar ta'siri aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gomogen-geterogen usulda fenol va uning hosilalari vinil efirlari sintezi usuli ishlab chiqilganligi, jarayon matematik modellashtirilganligi, geterogen usulda fenol va uning hosilalarini vinillash jarayoni texnologiyasi ishlab chiqilganligi va sintez qilingan birikmalarni defoliant sifatida hamda metall ionlarini aniqlashda analitik reagent sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fenol va uning hosilalarini gomogen va geterogen katalitik usulda vinillash bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

sintez qilingan fenolning vinil efiri defoliant sifatida "Elektrokimyozavod" AJ da amaliyotga joriy qilingan ("Elektrokimyozavod" QK AJ ning 2024 yil 4 yanvardagi 03/125-04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada g'o'za o'simligiga nisbatan defoliantlik samaradorligi 86,6 % bo'lishi va import defoliantni mahalliy lashtirish imkonini bergan.

sintez qilingan krezollarning vinil efirlari Muborak gazni qayta ishlash zavodida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekneftgaz AJ Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2024-yil 10-iyundagi №521/GK-06-sonli ma'lumotnomasi).

Natijada gazokondensat saqlovchi omborlarning metall konstruksiyalarini biokorroziyaga uchratuvchi mikroorganizmlarni 76-88 % nobud bo'lishiga erishilgan va "Kvatramin-1001" import preparatini mahalliyashtirish imkonini bergan.

Sintez qilingan *p*-bromfenolning vinil efiri "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ da amaliyotga joriy qilingan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning 2024 yil 12 iyundagi №0811-sonli ma'lumotnomasi). Natijada simob(II) ionlarini aniqlashda analitik reagent sifatida qo'llash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi boyicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining nashr etilishi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Atsetilen asosida vinil efirlar sintezi**" mavzusidagi **birinchi bobida** vinillash jarayoni, jarayonda yuqori asosli sistemalarning roli, gidroksil guruhi tutgan organik birikmalarni vinillash to'g'risidagi ma'lumotlar, oddiy vinil efirlarni ayrim fizik-kimyoviy xossalari hamda ularning ishlatilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Chet el va respublika manbalaridan mavzuga oid materiallar yig'ilgan va ularni tahlil qilish orqali dissertatsiya mavzusining dolzarbligi aniqlangan hamda ishning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich moddalar, fenol va uning hosilalarini vinillash, sintez qilingan birikmalarni analizi va xossalari aniqlash usullari**" mavzusidagi **ikkinchi bobida** tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llanilgan boshlang'ich moddalar, fenol va uning hosilalarini gomogen usulda vinillash, geterogen katalizatorlarni tayyorlash usuli, fenol va uning hosilalarini geterogen sharoitda katalitik vinillash usuli, sintez qilingan moddalarni tarkibini va tuzilishini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash, sintez qilingan moddalarni qo'llanilish sohasini aniqlash to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **uchinchi bobi “Olingan natijalar va ularning tahlili”** deb nomlangan bo’lib, bunda fenol, *o*-, *m*- va *p*-krezollar, *p*-bromfenol, *p*-nitrofenol, *o*-aminofenol va gidroksinonlarni atsetilen ishtirokida gomogen usulda yuqori asosli sistemalar ishtirokida, geterogen usulda esa o’zakka shimdirilgan ishqorlar ishtirokidagi katalizatorlardan foydalanib amalga oshirilgan vinillash reaksiyalari natijalari va ularning tahlili keltirilgan.

Adabiyotlarda fenolni vinillash bo’yicha olib borilgan ishlar haqida bir qator ma’lumotlar keltirilgan. Bunda jarayonlar asosan, yuqori bosimlarda olib borilgan. Ushbu ishda fenolni atsetilen ishtirokida atmosfera bosimida bir bosqichda vinillash reaksiyasi amalga oshirildi va jarayonda fenolning vinil efiri (viniloksibenzol) hosil bo’lishi aniqlandi.

Fenolning vinil efiri unumiga erituvchi tabiati va harorat ta’siri o’rganildi. Tadqiq qilingan erituvchilar ichida reaksiya DMSO erituvchisida olib borilganda boshqa erituvchilarga nisbatan fenolni vinil efiri nisbatan yuqori unum bilan hosil bo’ladi. Bunda DMSO ishtirokida KOH-DMSO sistemasi hosil bo’ladi va muhitning asosligi ortadi. Shuningdek, hosil bo’lgan kaliy fenolyat oson dissotsialanadi va shu sababli vinillash jarayoni borishi osonlashadi, ya’ni vinil efir hosil bo’lish unumi ortadi. Jarayon KOH-DMSO sistemasi ishtirokida turli harorat va katalizator miqdorida olib borildi (1-jadval).


#### 1-Jadval

##### Fenolni vinil efiri unumiga harorat va katalizator miqdori ta’siri (erituvchi-DMSO)

№	Katalizator -KOH miqdori (fenol massasiga nisbatan %)	Harorat, °C	Fenolning vinil efiri unumi, %
1.	10	75-80	kam miqdorda
2.	10	95-100	19.0
3.	10	120-125	23.0
4.	10	145-150	31.0
5.	10	165-170	24,2
6.	3	145-150	9.0
7.	5	145-150	25.0
8.	15	145-150	32.5
9.	20	145-150	33.0
10.	25	145-150	33.0

Jarayon borishi optimallashtirildi, fenolning vinil efiri unumi (33,0 %) uchun maqbul sharoit topildi: katalizator - 20%, erituvchi - DMSO, harorat 145-150 °C. Birikma tuzilishi IQ- va PMR- spektroskopiya natijalari yordamida isbotlandi.

Fenol halqasida turli xil o’rinbosarlarni bo’lishi molekuladagi elektron zichlik va uning taqsimlanishiga, natijada kimyoviy faolligiga ta’sir etadi. Shu nuqtai nazardan krezollarni (*o*-, *m*-va *p*-) ham atsetilen bilan vinillash jarayoni o’rganildi va jarayonda mos ravishdagi vinil efirlar hosil bo’lishi aniqlandi.



Dastlab *o*-Krezolni LiOH, NaOH va KOH katalizatorlari ishtirokida vinillash reaksiyasi amalga oshirildi (2-jadval).

2-Jadval

***o*-Krezolni vinillash reaksiyasiga katalizatorlar tabiati ta'siri**

Katalizator	Harorat, °C	<i>o</i> -Krezolning vinil efiri unumi, %
LiOH	85	4,0
	110	12,5
NaOH	85	8,4
	110	17,3
KOH	85	19,0
	110	29,2

Ishqoriy metalning davriy jadvalda tartib raqami ortishi bilan, ularni *o*-krezolni vinillashdagi katalitik faolligi ortadi, MeOH-DMSO sistemasida KOH nisbatan faol hisoblanadi. Reaksiya borishiga erituvchi tabiati, katalizator (KOH) miqdori, harorat va reaksiya davomiyligi ta'sirini o'rganish orqali (3-jadval) maqbul sharoit topildi va bunda mahsulotning maksimal unumi 29,2 %ni tashkil etdi.

3-Jadval

***o*-Krezolni atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasiga ta'sir etuvchi omillar (erituvchi tabiati, katalizator miqdori, harorat, reaksiya davomiyligi)**

№	Erituvchi	KOH katalizatori miqdori ( <i>o</i> -krezol massasiga nisbatan %)	Harorat, °C	Reaksiya davomiy -ligi, soat	<i>o</i> -Krezolning vinil efiri unumi, %
1.	DMFA	5	85	4	3
2.	DMFA	10	85	4	5
3.	DMFA	10	110	4	14
4.	DMSO	5	110	4	4
5.	DMSO	5	110	6	2
6.	DMSO	10	85	4	19
7.	DMSO	10	110	4	29
8.	DMSO	10	110	6	16
9.	DMSO	10	140	4	12

Metil guruhini fenol halqasidagi gidroksil guruhi vodorodi faolligiga ta'sirini aniqlash uchun *m*- va *p*-krezollarni atsetilen ishtirokida katalitik vinillash

reaksiyalari ham o'rganildi. *m*-Krezolni atsetilen bilan reaksiyasi KOH katalizatori (*m*-krezol massasiga nisbatan 10%) ishtirokida DMSO eritmasida va erituvchisiz gomogen muhitda olib borildi (4-jadval).

#### 4-Jadval

***m*-Krezolni atsetilen bilan KOH katalizatori ishtirokida vinillash reaksiyasiga erituvchi, harorat va reaksiya davomiyligi ta'siri**

№	Erituvchi	Harorat, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	<i>m</i> -Krezol vinil efiri unumi, %
1	-	85	4	-
2	-	110	4	3.0
3	-	110	6	3,5
4	DMSO	85	4	34.0
5	DMSO	110	4	43.0
6	DMSO	140	4	30.0
7	DMSO	140	6	28.0

DMSO erituvchisida reaksiya davomiyligi 4 soat bo'lganda, harorat 85-140 °C oralig'ida oshirilganda *m*-krezolning vinil efiri hosil bo'lishi unumi maksimum orqali o'tadi. Jarayonda *m*-krezolni vinil efirini olishning muqobil sharoiti topildi: erituvchi – DMSO, harorat 110 °C va reaksiya davomiyligi 4 soat. Bunda mahsulot unumi 43 % ga teng bo'ldi. *p*-Krezolni ham atsetilen ishtirokida vinillash DMFA va DMSO erituvchilarida, turli haroratlarda (85-125 °C), reaksiya davomiyligi 4 soat, katalizator miqdori 5 va 10 % qilib amalga oshirildi (5-jadval).

#### 5-Jadval

***p*-Krezolni atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi sharoiti va mahsulot unumi**

№	Erituvchi	Katalizator KOH miqdori, %	Harorat, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	<i>p</i> -Krezolning vinil efiri unumi, %
1.	DMFA	5	85	4	6
2.	DMFA	10	85	4	15
3.	DMFA	10	110	4	24
4.	DMSO	5	85	4	11
5.	DMSO	5	110	4	14
6.	DMSO	5	110	6	15
7.	DMSO	10	85	4	28
8.	DMSO	10	110	4	36
9.	DMSO	10	140	6	18
10.	DMSO	10	140	4	21

*p*-krezolni vinillash reaksiyasi sharoiti optimallashtirildi va maqbul sharoit aniqlandi: harorat 110 °C, katalizator miqdori 10 %, reaksiya davomiyligi 4 soat, mahsulot unumi 36 %.


Fenol va krezollarni vinillash jarayoni tahlil qilindi (6-jadval). Ularning nisbiy faolligi quyidagi qatorni tashkil etadi: fenol < o-krezol < p-krezol < m-krezol va unumi mos ravishda 19,0; 29,0; 36,0 va 43,0 % ga teng.

**6-Jadval**

**Fenol va krezollarning vinil efirlari unumiga harorat ta'siri**  
(erituvchi -DMSO, katalizator-KOH 10%, reaksiya davomiyligi 4 soat)

Boshlang'ich modda	Harorat, °C	Vinil efir unumi, %
Fenol	95-100	19
<i>o</i> -krezol	110	43
<i>m</i> -krezol	110	29
<i>p</i> -krezol	110	36

Fenol xalqasida gallogen atomining bo'lishini vinillash jarayoniga ta'sirini aniqlash uchun *p*-bromfenolni gomogen fazada KOH-DMSO yuqori asosli sistemasida atsetilen bilan birikish reaksiyasi olib borildi va vinil efiri hosil bo'lishiga asosiy omillar; reaksiya davomiyligi, harorat, erituvchi va katalizatorlar tabiati ta'siri aniqlandi (7-jadval).



**7-Jadval**


***p*-Bromfenol vinil efiri unumiga katalizator va erituvchi tabiati ta'siri**  
(reaksiya davomiyligi 8 soat, harorat 125 °C)

Erituvchi	<i>p</i> -bromfenol vinil efiri, %	<i>p</i> -bromfenol, %	Qo'shimcha mahsulotlar, %
<b>Katalizator – NaOH</b>			
DMSO	26,6	26,8	21,4
DMFA	21,5	38,2	22,3
Toluol	8,8	46,3	44,9
Benzol	8,1	48,7	43,2
<b>Katalizator – KOH</b>			
DMSO	35,2	27,7	10,6
DMFA	26,7	34,8	17,0
Toluol	11,2	42,5	46,3
Benzol	10,4	45,4	44,2

Jarayon DMSO eritmasida olib borilganda NaOH da 26,6 va KOH da esa *p*-bromfenol vinil efiri hosil bo'lish unumini 35,2 % ga ortishi aniqlandi. Maxsulot unumiga reaksiya davomiyligi, harorat, katalizator miqdori ta'sirlari o'rganildi va maqbul sharoit topildi: harorat 125 °C, reaksiya davomiyligi 8 soat, erituvchi

DMSO, katalizator - KOH *p*-bromfenol massasiga nisbatan 40 % va bunda mahsulot unumi 38,5 % ni tashkil etdi.

Nitroguruh faol elektroakseptor xususiyatiga ega bo'lib, uning fenol xalqasida o'rinbosar sifatida bo'lishi fenol xalqasidagi elektronlar taqsimotiga va mos ravishda gidroksil guruhi vodorodining faolligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Nitroguruhning vinillash jarayoniga ta'sirini aniqlash uchun turli sharoitlarda *p*-nitrofenolning atsetilen bilan vinillash reaksiyasi gomogen va geterogen sistemalarda dimetilsulfoksid va toluol eritmasida amalga oshirildi.



Jarayon borishiga katalizator miqdori, harorat va reaksiya davomiyligi ta'siri aniqlandi (8-jadval).

## 8-Jadval

### *p*-Nitrofenolni vinillash reaksiyasi (katalizator - KOH, erituvchi - DMSO)


Katalizator miqdori, % ( <i>p</i> -nitrofenol massasiga nisbatan)	Reaksiya harorati, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	<i>p</i> -Nitrofenolning vinilefiri unumi, %
5	85	4	2
5	110	5	4,5
5	130	5	6,0
10	110	3	7,0
10	110	4	9,0
10	110	5	9,5
10	110	7	8,6
10	130	5	12,7
10	140	5	12,0
15	130	5	10,0

Fenol molekulasiga nitro- guruhining kiritilishi uning kislotaliligini oshiradi va vinillash reaksiyasiga kirishish qobiliyatini pasaytiradi. Bu holatni fenolga nisbatan *p*-nitrofenolning vinil efiri unumi (12,7 %) kamligi orqali izohlash mumkin.

*p*-Nitrofenolning atsetilen bilan reaksiyasi geterogen usulda, gaz fazada KOH/faollantirilgan ko'mir asosidagi katalizatorida 320-350 °C haroratda olib borildi va bunda ham *p*-nitrofenolning vinil efiri hosil bo'lishi aniqlandi, uning unumi 19,2 %ni tashkil qildi.

*p*-Nitrofenolning gomogen va geterogen usullarda vinillash jarayoni natijasida olingan tajriba ma'lumotlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, geterogen-katalitik vinillashda vinil efirning unumi gomogen usuldagiga nisbatan yuqori.

Ishda fenol halqasidagi guruh tabiatini vinillash jarayoniga va maxsulot unumiga ta'sirini o'rganish maqsadida *o*-aminofenolni atsetilen bilan vinillash jarayoni ham amalga oshirildi. Reaksiyada asosan, *o*-aminofenolning vinil efiri hosil bo'lishi aniqlandi.




Jarayon borishiga katalizator va erituvchi tabiati, harorat, reaksiya davomiyligi ta'sirlari aniqlandi va maqbul sharoit topildi. Maxsulotning maksimal unumiga (32,1 %) 130 °C, KOH-DMSO sistemasida, 6 soat davomida erishildi. Sintez qilingan *o*-aminofenolning vinil efiri tozaligi gaz suyuqlik xromatografiyasida, tuzilishi esa IQ- va PMR- spektroskopik usullarda isbotlandi.

Orto-aminofenol vinil efirining IQ-spektrida amino guruhning yuqori keng polosali valent tebranishi 3400  $\text{cm}^{-1}$  sohada, 1574  $\text{cm}^{-1}$  sohada qaychisimon tebranish nomoyon bo'ldi. Aromatik xalqadagi =CH guruhining past valent tebranishi 3078  $\text{cm}^{-1}$  sohada, aromatik xalqaning xalqa tebranishi 1489  $\text{cm}^{-1}$  sohada, deformatsion tebranishi 697  $\text{cm}^{-1}$  sohada kuzatildi. Efir bog'iga xos (C-O-C) intensivligi juda kuchli valent tebranishlar 1212  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohasida kuzatildi. Vinil guruhiga (-CH=CH<sub>2</sub>) xos o'tkir uchli valent tebranishlar 1685  $\text{cm}^{-1}$  sohada kuzatildi.

<sup>1</sup>N-YaMR-spektrida 7.3-7.5 m.u. sohalarda aromatik xalqadagi proton atomlarining dublet-dublet signallari namoyon bo'ldi. Vinil guruhi tarkibidagi bitta proton atomining (CH-) multipliet signali 7.1 m.u. sohada, qo'sh bog' saqlagan metilen guruhidagi (CH<sub>2</sub>=) ikkita proton atomining dublet-dublet signali esa 4.9-5.5 m.u. sohalarda kuzatildi.

Gidroxinonni atmosfera bosimida atsetilen bilan KOH-DMSO katalitik sistemasi ishtirokida turli reaksiya davomiyligida va haroratlarda, gomogen va geterogen muxitlarda vinillash reaksiyasi ham amalga oshirildi.




Gomogen usulda jarayon borishining maqbul sharoiti topildi: 110 °C, 4 soatda 13 % katalizator ishtirokida unum 19,3 % ni tashkil qildi.

Gidroxinonni geterogen sharoitda katalitik vinillash reaksiyasi ham tadqiq qilindi. Katalizator sifatida faollantirilgan ko'mirga shimdirilgan KOH ishlatildi. Katalizator faol komponentining miqdori 30 %, reaksiya harorati 320-350 °C, boshlang'ich moddalarni hajmiy tezligi 55-60 l/kat.soatni tashkil etdi. Bunda gidroxinonni divinil efiri hosil bo'lishi aniqlandi va uning unumi 46,4 % bo'lishiga erishildi.

Geterogen va gomogen usullarida gidroxinonni divinil efirini olish natijalari taqqoslanganda geterogen usulda olingan natijalar gomogen sharoitga nisbatan yuqori bo'ldi va mos ravishda 46,4 va 19,3 % ni tashkil etdi.

Krezollarni ham geterogen sharoitda atsetilen bilan vinillash jarayoni amalga oshirildi va ularning mos ravishdagi vinil efirlari hosil bo'lishi aniqlandi.



Krezollarning geterogen- va gomogen-katalitik vinillash jarayonlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, geterogen usul gomogen usulga nisbatan samarali hisoblanadi. *m*-Krezolni geterogen-katalitik usulda vinillash orqali olingan vinil efirining maksimal unumi 58,2 %, gomogen-katalitik usulda esa 43,4 % ga teng.

Sintez qilingan *m*- va *p*-krezollarning vinil efirlari tuzilishi IQ- va PMR-spektroskopik usullari orqali isbotlandi. *m*-Krezolning vinil efirini IQ- spektrida 1650-1600  $\text{cm}^{-1}$  sohada – C=C- vinil guruhining valent tebranishi, 1150 va 1250  $\text{cm}^{-1}$  sohada efir guruhiga (C-O-C) tegishli yutilish tebranishlari, 790-700  $\text{cm}^{-1}$  va 725-685  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda esa aromatik halqadagi guruhlarning assimetrik deformatsion tebranishlari kuzatildi.

*m*-Krezolning vinil efiri PMR-spektrida quyidagi signallar kuzatildi: 5,9 -6,1 m.u. sohada vinil guruhiga tegishli vodorodlar, 6,2-6,4 m.u da aromatik halqadagi assimetrik vodorodlarning cho'qqilari kuzatildi, fenol halqasining meta- holatidagi metil guruhining vodorodlari esa 1,7-2,0 m.u.da namoyon bo'ldi.

*p*-Krezol vinil efirining IQ-spektrida 1650-1600  $\text{cm}^{-1}$  sohada – C=C vinil guruhining valent tebranishi, 1150 va 1250  $\text{cm}^{-1}$  sohada efir guruhiga (C-O-C) tegishli yutilish tebranishlari, 800-770  $\text{cm}^{-1}$  va 725-680  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda aromatik halqasidagi guruhlarning assimetrik deformatsion tebranishlari kuzatildi.

Dissertatsiya ishining **to'rtinchi bobi "Vinilefirlarning elektron tuzilishi, kvant-kimyoviy xisoblashlari, jarayonni matematik modellashtirish, hosil bo'lish mexanizmi va qo'llanilishi"** deb nomlanadi va bunda fenol va uning hosilalari: *m*-, *o*-, *p*-krezollar, *p*-bromfenol, 2,4-dibromfenol, *p*-nitrofenol, aminofenol va ularni vinil efirlarini elektron tuzilishi o'rganildi, kvant-kimyoviy hisoblashlari olib borildi va vinillash jarayoni matematik modellashtirildi, hamda molekulalarning kvant-kimyoviy hisoblashlari, RMZ yarim empirik usuli yordamida olingan fazoviy geometriyasi va elektron tuzilishi o'rganildi, molekulalarda zaryadlarning atomlarda taqsimlanishi shuni ko'rsatdiki, fenol halqasida manfiy zaryad qiymati kislorod atomida bir muncha ko'proq jamlangan.


Vinillash jarayoni uchun tanlangan moddalarni kvant-kimyoviy xisoblashlari, elektron tuzilishi va energetik xossalari (umumiy energiyasi, hosil bo'lish energiyasi, hosil bo'lish issiqligi, elektron energiyasi, yadro energiyasi, dipol momenti, kislorod atomining zaryadi) kvant-kimyoviy hisoblashlarni yarim empirik usuli yordamida amalga oshirildi va molekulalarning reaksiyon markazi tahlil qilindi.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilishda, analitik parametrlarni aniqlashda jarayon borishini matematik modellashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, fenol va uning hosilalarini vinillash natijalarini amaliyotga tadbiiq qilishda jarayonni matematik modellashtirish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ishda, atsetilen ishtirokida tanlangan fenol va uning hosilalari vinil efirlari sintezi jarayoni matematik modellashtirildi.


Adabiyotlarda atsetilen spirtlari, karbon kislotalar, faol vodorod tutgan azotli birikmalarni atsetilen bilan ta'siri va reaksiya natijasida ularning vinil hosilalari hosil bo'lish mexanizmlari to'g'risida B.A.Trofimov, V.V.Novokshonov, V.I.Potkin, Ye.A.Dikusar, L.A.Oparina, L.N.Parshina kabi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Ularda asosan vinillash mexanizmi ikki nuqtai nazardan: funksional guruhning faol vodorodi hisobiga yoki atsetilenning vodorodi hisobiga borishi to'g'risidagi qarashlar mavjud. Ushbu fikrlar bir-birini to'ldirsada, lekin turli nuqtai nazardan yondashilgan.

*p*-Bromfenolni gomogen fazada KOH-DMSO yuqori asosli sistemasida atsetilen bilan nukleofil birikish reaksiyasi natijasida *p*-bromfenolning vinil efiri hosil bo'ladi.


Reaksiyaning dastlabki bosqichida erituvchi DMSO va kaliy ishqori o'zaro ta'sirlashib yuqorli asosli sistema, ya'ni oraliq kompleks hosil qiladi va *p*-bromfenol bilan reaksiyaga kirishib, uning kaliyli tuzi, ya'ni kaliy *p*-bromfenolyatni hosil qiladi.



Reaksiyaning keyingi bosqichida hosil bo'lgan *p*-bromfenolning kaliyli tuzini atsetilen uchbog'iga "nukleofil birikishi" sodir bo'ladi va oraliq metall kompleksni hosil qiladi.



Oraliq metall kompleks *p*-bromfenol bilan ta'sirlashib *p*-bromfenolning vinil efirini hosil kiladi.



Organik reagentlar ishtirokidagi olib boriladigan sifat va miqdoriy reaksiyalari analitik kimyoda o'zining seziluvchanligi va tanlab ta'sir etishi bilan ajralib turadi. Analitik kimyoda organik reagentlarning, jumladan vinil hosilalarning roli muhim hisoblanadi. Adabiyotlardan bizga ma'lumki, vinil efirlar tipik metallar, og'ir va boshqa metall ionlari bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qiladi va ular analitik kimyoda reagent sifatida turli usullarda qo'llanilishi o'rganilgan. Lekin analitik reagent sifatida suvli, suvsiz va aralash muhitda qo'llanilishi hozirgi kungacha o'rganilmagan.

Erigan moddaning dissotsiyalanish darajasi, elektr o'tkazuvchanligi eritmalar aralashmasi komponentlariga va yangi ionlarning kiritilishiga bog'liq bo'ladi. Yangi ionlar kiritilishi ion atmosferasining reaksiya vaqtini, keyinchalik esa relaksion kuchini ham o'zgartiradi.

Shu maqsadda *p*-bromfenolning vinil efiri eritmasi ishtirokida Hg (II) ionini sirka kislotali sharoitda amperometrik titrlash natijalariga fon elektrolitlar va bufer aralashmalarining tabiati va konsentratsiyalarining ta'siri o'rganildi.

*p*-Bromfenol vinil efiri eritmasi ishtirokida Hg (II) ionini amperometrik titrlashlar turli tabiatli fon elektrolitlarida olib borildi: fon elektrolitlar sifatida - litiy perxlorat, litiy nitrat, kaliy asetat, natriy asetatlardan foydalanildi. O'rganilayotgan muhitda elektr o'tkazuvchanligini oshirish va *p*-bromfenol vinil efiri eritmasi ishtirokida Hg (II) ionini sirka kislotali sharoitda amperometrik titrlashni samaradorligini oshirish maqsadida fon elektrolitlar konsentratsiyalari va tabiati ta'sirlari o'rganildi. Shuningdek bu o'rganilgan omillar tajriba natijalarining to'g'riligi va qayta takrorlanishini va xatoliklar kam bo'lishi imkoniyatini yaratadi. Quyidagi 9-jadvalda Hg (II) ionini sirka kislotali sharoitda amperometrik titrlash natijalari keltirilgan.

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, *p*-bromfenol vinil efiri ishtirokida Hg (II) ionini amperometrik titrlashda aniqlangan simobning miqdori kiritilgan miqdorlarga mos keladi. Ushbu fon elektrolitlari orasida *p*-bromfenolning vinil efiri eritmasi ishtirokida Hg (II) ionini sirka kislotali sharoitda amperometrik titrlashda titrlash egri chiziqlari shakli va olingan aniqlash natijalari to'g'riligi 0,2 M  $\text{CH}_3\text{COOK}$  da talabga javob berishi aniqlandi, bunda nisbiy standart chetlanish ( $S_r$ ) kichik qiymatlarga ega bo'lishi aniqlandi.

***p*-Bromfenolning vinil efiri eritmasi ishtirokida Hg (II) ni suvsiz muhitda amperometrik titrlash natijalariga turli fon elektrolitlari tabiati ta'siri**

№	Fon elektrolitlar	Kiritilgan Hg (II), mkg	Topilgan Hg (II), mkg (R = 0,95; $\bar{x} \pm \Delta X$ )	N	S	S <sub>r</sub>
1	0,2M CH <sub>3</sub> COONa	25	25,15 ± 0,34	5	0,28	0,011
		50	49,80 ± 0,54	4	0,34	0,007
2	0,2M CH <sub>3</sub> COOK	25	24,95 ± 0,18	5	0,15	0,006
		50	50,12 ± 0,25	5	0,20	0,004
3	0,15M LiClO <sub>4</sub>	25	24,78 ± 0,52	5	0,42	0,017
		50	49,70 ± 0,81	4	0,51	0,010
4	0,2M LiNO <sub>3</sub>	25	25,20 ± 0,62	4	0,39	0,015
		50	50,35 ± 0,69	5	0,56	0,011


*p*-Bromfenolni vinil efirining elektrokimyoviy xossalarini o'rganishda platina diskli elektrodda protogen erituvchi muhitida sirka kislotali sharoitda olib borildi. Jarayonda o'zgaruvchan tok kattaligi bilan konsentratsiyasining to'g'ri proporsional bog'liqligi o'rganildi. Fon elektrolitlarda suvli va suvsiz eritmalarda Hg (II) ionining  $2 \cdot 10^{-2}$ - $2 \cdot 10^{-5}$  M konsentratsiyasi sohasida yaxshi natijalarga erishish mumkinligi ko'rsatildi.

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, *p*-bromfenolning vinil efiri simob (II) ionini aniqlashda analitik reagent sifatida tavsiya etiladi.

Atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi orqali *m*-krezolning vinil efirini olish texnologiyasi ishlab chiqildi va u bir nechta bosqichlardan iborat:

1. *m*-krezol, DMSO va KOH ishtirokida atsetilen gazi berilib *m*-krezol vinil efiri sintez qilish liniyasi.
2. Ekstraksiya va quritish liniyasi.
3. Rektifikatsiya usuli orqali *m*-krezol vinil efirini olish liniyasidan iborat.

Dastlab 4-reaktorga boshlang'ich moddalar ketma-ket yuboriladi. Bunda 1-idishdagi *m*-krezol 4-reaktorga yuboriladi. 2-idishdagi DMSO va 3-idishdagi KOH ham ketma-ketlik bilan 4-reaktorga yuboriladi. Shundan so'ng asetilen gazi joylashtirilgan 5-qurilmadan sekinlik bilan asetilen gazi 4-reaktorga yuboriladi. Reaksiya 4 soat davomida 110°C haroratda davom etadi. Aralashma 6-7-nasoslar orqali 9-eksikatorga yuboriladi. Eksiktorga yuborilgan massa hajmiga mos ravishda 8-idishidan dietil efiri yuboriladi va eksteksiya amalga oshiriladi. Mahsulot 9 dan 10- separatorga yuboriladi. 10- uskunada ma'lum vaqt mahsulot tindirilib, kerakli qatlam 12-nasos orqali 13-yuvish kolonnasiga yuboriladi. 9 da qolgan ekstraksion aralashma qoldig'i 11-idishga yuboriladi. 13-kolonnada yuvilgan mahsulot 15-quritish qurilmasiga yuboriladi. 13-yuvish uskunasiidagi reaksiya qoldiqlar esa 14-idishga yuboriladi. 15-quritish qurilmasidan mahsulot 16-rektifikatsion kolonnaga yuboriladi. Bu yerda 36 °C dan boshlab dietil efiri ajrala boshlaydi va efir 17- idishda yig'iladi. 17-idishda yig'ilgan dietil efiri 8-idishga yuboriladi. 117-118 °C haroratda esa *m*-krezol vinil efiri ajralib chiqib 18-idishga yig'iladi va tayyor mahsulot sifatida qadoqlanadi.



**1-Rasm. *m*-krezol asosida *m*-krezol vinil efiri ishlab chiqarish jarayoni sxemasi:** 1-*m*-krezol, 2-DMSO, 3-KOH, 4-reaktor, 5-C<sub>2</sub>H<sub>2</sub> balon, 6-7-12-nasoslar, 8-dietil efir, 9-eksikator, 10-separator, 11- qoldiq efirlar, 13- yuvish kolonnasi, 14-reaksion aralashma qoldiq, 15-quritish qurilmasi, 16-rektifikatsion kolonna, 17-dietil efir, 18- mahsulot.

## XULOSA

1. Fenol, *o*-,*m*-,*p*-krezollar, *p*-bromfenol, 2,4-dibromfenol, nitrofenol, gidroksinon, *o*-aminofenolni atmosfera bosimida atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi natijasida mos ravishda vinil efirlar hosil bo'lishi aniqlangan.

2. Tanlangan moddalarni vinillash jarayoniga organik erituvchilar, katalizator tabiati va miqdori, harorat, reaksiya davomiyligi ta'sirini o'rganish orqali jarayon borishining maqbul sharoiti topilgan.

3. KOH-DMSO yuqori asosli sistemasining vinillash reaksiyasidagi roli ko'rsatilgan. Vinillash jarayonida o'rganilgan fenol va uning hosilalarini vinillashga nisbatan faollik qatori aniqlangan.

4. Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi PMR- va IQ- spektroskopiya usullari orqali isbotlangan, tozaligi esa GSX orqali aniqlangan.

5. Fenol va uning hosilalari asosida olingan vinilefirlarning kvant-kimyoviy va molekulyar-dinamik hisoblashlari amalga oshirilgan, vinillash jarayoni natijalari matematik qayta ishlangan va jarayon matematik modellashtirilgan, vinilefirning hosil bo'lish mexanizmi izohlangan.

6. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan vinil efirlarning analitik kimyoda ayrim metall ionlarini aniqlashda reagent sifatida qo'llash imkoniyati ko'rsatilgan.

7. *m*-Krezolning vinil efiri metallar biokorroziyasi ingibitori sifatida va g'o'za o'simligi defolianti sifatida qo'llanilgan, natijada mos ravishdagi import mahsulotlarni mahalliyashtirish imkoniyati ko'rsatilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**  

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**КОСИМОВА ОГУЛХОН ХАКИМДЖОНОВНА**

**ТЕХНОЛОГИЯ КАТАЛИТИЧЕСКОГО ВИНИЛИРОВАНИЯ  
ФЕНОЛА И ЕГО ПРОИЗВОДНЫХ НА ОСНОВЕ АЦЕТИЛЕНА**

02.00.14 – Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4. PhD/T5189.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.nammti.uz](http://www.nammti.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** **Мирхамитова Дилором Худайбердиевна**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Юсупова Лола Азимовна**  
доктор технических наук, профессор  
**Охундадаев Абдугани Комилжон угли**  
доктор философии по техническим наукам

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «\_\_» 2025 года в «\_\_» часов на заседании Научного совета DSc.03/29.08.2023К.Т.66.03 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Косонсой 7, Тел: (99869) 228-76-75; факс: (99869) 228-76-71. e-mail: ([niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института под регистрационным за № (160115, г.Наманган, ул. Косонсой, 7). Тел: (+99869) 228-76-75; факс: (+99869) 228-76-71.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(реестр протокол рассылки № \_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Эргашев О.К.**

Председатель разового научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

**Шеркузиев Д.Ш.**

Ученый секретарь разового научного  
совета по присуждению учёных степеней  
д.т.н., профессор.

**Кадирханов Ж.М**

Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., доц.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации PhD)**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В развитии химии соединений ацетилен в мире важно использовать новые инновационные технологии синтеза фенола, его производных и их виниловых эфиров, определить механизм образования виниловых эфиров и области их применения. Фенол, его производные и их виниловые эфиры широко используются в качестве биологически активных веществ в сельском хозяйстве, исходных материалов в органическом синтезе в химической промышленности, мономеров в химии полимеров, материалов для покрытий, в качестве аналитических реагентов при определении ионов некоторых металлов, в производство клеев. Кроме того, из таких соединений важно производить термостойкие специальные материалы, устойчивые к разрушению термоокислители, материалы, устойчивые к агрессивным растворам, электролюминесцентные и гидрофобные материалы, модификаторы.

В мире проводятся научные исследования по изучению структуры и реакционной способности виниловых эфиров, процессов образования комплексных соединений с переходными металлами. В связи с этим на основании электронного строения и физических свойств алкинов, особое внимание уделяется процессам их взаимодействия с электрофильными, нуклеофильными и металлокомплексами, синтезу новых органических соединений на основе ацетилен, определению их физико-химических свойств.

В нашей республике реализуется программа локализации использования местного сырья при производстве химической продукции, в том числе органических веществ, создаются методы получения соединений, предназначенных для импорто замещения и экспорта, а также отдельные результаты достигаются проведением научных исследований по определению их формирования и областей применения. В новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы поставлены задачи «Развития химической и газохимической отраслей, повышения уровня переработки природного газа с получением **продукции<sup>2</sup>**». В связи с этим актуальна разработка экономически эффективных технологий получения аминоэфиров ацетилен и их производных на основе местного сырья.

УП-4805 Президента Республики Узбекистана от 21 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в областях химии и биологии»; УП-4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»; УП-3983 от 25 октября 2018 года «Меры по опережающему развитию химической промышленности в Республике Узбекистана»: и УП-№17 от января 2018 года №3479 «О мерах по устойчивому обеспечению

---

